

## **TALABALARDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY JARAYONLARI.**

*A.B.Isomiddinov*

*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning individual pedagogik va psixologik xususiyatlari, talabalarda etnomadaniy kompetensiya etnik xususiyat bo‘yicha bilimlar majmui ekanligi, zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik etuklik va etnoijtimoiy mobilikka ega bo‘lishi, etnokognitiv jarayonlar, amaliy faoliyat va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** amaliy faoliyat, etnokognitiv jarayon, etnomadaniy kompetensiya, etnomadaniyat, ijtimoiy faollik, jamiyat, milliy qadriyatlar, ta’lim, tarbiya.

**Abstract:** this article reveals the individual pedagogical and psychological features of the formation of ethnocultural competence in students, the fact that ethnocultural competence in students is a set of knowledge on ethnic character, the ability to have pedagogical maturity and ethno-social mobility in a modern educational environment, the importance of developing ethnocongognitive process practical activities and personal qualities.

**Keywords:** practical activities, ethnocongognitive process, ethnocultural competence, ethnoculture, social activism, society, national values, education, upbringing.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar etnomadaniyatini rivojlantirish orqali millat madaniyatini keyingi avlod vakillariga sof holda etkazishning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasida “Oliy ta’limda ma’naviy–axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mavzu yuzasidan Djoel Spring ta’lim muassasalarining ijtimoiy tuzilishiga ahamiyat qaratgan[5]. Ta’lim–tarbiyada barcha o‘quvchi–talabalarni ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar bir xil yondashish kerakligini asoslagan.

J.Henry oliy ta’lim jarayonida talaba shaxsiga alohida munosabatda bo‘lish ya’ni uni ijtimoiy guruh vakili sifatida qabul qilish muhimligini asoslagan[3].

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar ijtimoiy noxaqlik va adolatsizlik demokratik jamiyat qurishga katta xavf solishi hamda ijtimoiy tengsizlik avj olishi mumkinligini tasdiqlashi mumkin.

Yigirmanchi asrning so‘nggi o‘n yillarida pedagog–psixolog olimlar ijtimoiy adolatga asoslangan ta’lim tizimi va unga yangicha yondashish, o‘qitish modelini ishlab chiqishga uringan.

Xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijasida multi va etnomadaniyat asrlar davomida rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Shu davrda etnik, gender va yosh xususiyati

diskriminatsiyasi yuz bergan. Ya’ni inson huquqi va erkinligini cheklanishi, ular bilan ijtimoiy holati (yoshi, millati, irqi, oilaviy sharoiti, imkoniyati, ma’lumoti, psixik)ga ko’ra turlicha muloqot o’rnatilishi kabilar ro’y bergan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida etnomadaniyat tushunchasi kengayib bordi. Uning tuzilishi va mazmuni, metodologiyasiga asoslanib, etnopedagogika va pedagogik bag’rikenglik rivojlandi. Sekin–asta pedagogik va kasbiy kompetensiya yuzaga kela boshladi.

Dunyo mamlakatlarining talabalar milliy madaniyatni rivojlantirishda mentalitet, o’zlikni anglash, tolerant munosabat o’rnatish ko’nikma va malakalarning yaxlit tizimini, muhim kompetensiyalarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim sanalmoqda. Yoshlarni jahon madaniyati qadriyatlarini va o’z xalqining madaniyati bilan tanishtirish, ona tiliga hurmat, xalqining erishgan yutuqlaridan faxrlanish tuyg’usini tarbiyalash borasida qator izlanishlar olib borilmoqda.

**Tahlil va muhokamalar.** Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllanganligi etnik bilim, milliy o’z–o’zini anglash, milliy ma’naviyatga egaligi bilan aniqlandi.

Talabalarda etnoijtimoiy va etnopedagogik kompetensiya umumkasbiy kompetensiyaning tarkibi hisoblanadi.

U quyidagilarda namoyon bo’ladi:

– jamiyatning ijtimoiy muammolarini bilish, uni rivojlantirish mexanizmlarini tushunish;

– ijtimoiy faollik va etnopedagogik yo’nalishdagi loyihalarda qatnashish;

– ijtimoiy hayotdagi qoida, an’nalari va me’yorlarni qabul qilish hamda amal qilish;

– ko’p millatli jamiyatda tolerant munosabatda bo’lish, o’ziga va boshqalarga hurmatda bo’lish;

– etnopedagogik vazifalarni hal etishda ma’suliyatni zimmasiga olish;

– o’z millatining madaniy sifatlarini ifodalash.

Natijada talabalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda ularning individual pedagogik va psixologik xususiyatlarini talabalarda etnomadaniy kompetensiya etnik xususiyat bo’yicha bilimlar majmui bo’lib, zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik etuklik va etnoijtimoiy mobilikka ega bo’lishdir.

**Etnokognitiv** jarayonda talabalar o’z ona tilini mukammal egallash, an’ana va odatlarini, avlodlar shajarasini bilish va Vatanining ijtimoiy–madaniy taraqqiyoti haqida ma’lumotga ega bo’lish, boshqa millat a’zolari bilan muloqotda bo’lish ko’nikmalarini egallagan bo’lishi zarur.

**Amaliy faoliyatda** talabalar bevosita o’zbek xalqining milliy urf–odatlarini va tadbirlarini ishtirok etadi. O’quvchilarga ta’lim–tarbiya berish jarayonida milliy madaniyat elementlarini qo’llash bo’yicha tajribaga ega bo’ladi.

**Shaxsiy sifatlar** talabalarning bag’rikengligi, insonparvarligi, mehribonlik, xayrli va ezgu ishlarni bajarish bilan ifodalanadi.

**Xulosa.** Tajriba natijalari asosida talabalarda etnomadaniyat o’z xalqining intellektual boyligi, uning ma’naviy–tarixiy merosi, madaniy yodgorliklari, geografik, iqlimi, ijtimoiy–tarixiy xususiyatlari, hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanlik qobiliyati, xalqining birligi va totuvligiga hissa qo’shish va boshqa millatlar madaniyatidan xabardorligi bilan tavsiflanadi.

Etnomadaniy kompetensiya, insonlarning turli etnik guruhlarga oid tushunchalarni, qadriyatlarini, madaniyatlarini tushunish, boshqa etnik jamoalar bilan o’zaro aloqalarni

o‘rnatish va jahon madaniyatiga oid bilim va malakalarga ega bo‘lishni ifodalovchi umumiy tushunchadir. Bu, insonlar orasidagi boshqa etnik guruhlar bilan muloqotda va amaliy faoliyatlarda boshqa madaniyat va tajribalarni tushunish va qadrlash maqsadida rivojlantiriladi.

Etnomadaniy kompetensiyaga ega bo‘lgan insonlar, jahonni ko‘plab o‘qituvchilari, kasb-hunar o‘rganuvchilari, liderlar va boshqa soha mutaxassislarida turli sohalar bo‘yicha ishlayadilar. Bu kompetensiya, pedagog–psixologlarning global jamiyatda munosib qatnashishiga, aloqa qilishiga hamda bugungi kompleks dunyo bilan yaxshi munosabatlarga kirisha olishiga tom ma’noda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tadqiqot natijalari asosida etnomadaniy kompetensiya, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, etnik madaniyatga oid tasavvur, bilim va ko‘nikmalarni egallash, millatlararo o‘zaro munosabat va harakatni samarali tashkil etish qobiliyati deyish mumkin.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish jarayonlarida jamiyatimizning madaniy-axloqiy, ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-siyosiy tizimlardagi voqea- hodisalar bilan bog‘liq holda etnomadaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Etnomadaniy kompetensiya, insonlarning turli madaniyatlar bilan yaqindan tanish, qadriyatlarini qabul qilish, o‘z madaniy-dunyoqarashini o‘ziga xos tarzda namoyon qilish va turli etnik guruhlariga hurmat ko‘rsatish bilan bog‘liqdir. Ular kelajakdagi o‘zaro munosabatlarda millat mavqeyini muxofaza qilish, muomilada boshqa madaniyatlarga hurmat ko‘rsatish, munosabatlarni faol ravishda o‘rganish, aloqani tushunish va o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatlarini o‘rganishadi. Bu esa o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakasini yanada sifat jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: “O‘zbekiston”, 2023 - yil 46-bet. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Mirziyayev Sh. M. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr. <https://lex.uz/docs/4545884>.
3. Henry Ж. Critical pedagogy, the state, and cultural struggle. New York : SUNY Press,1989.-299p
4. Isomiddinov A.B “Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish omillari”. FARS INTERNATIONAL JOURNAL OF EDUCATION SOCIAL SCIENCE & HUMANITIES ISSN 2945-4492 SJIF(2022):6.786 Volume 10{Issue-12}2022 22.12.2022- ear. 785-789-page
5. Spring Dj. “The Intersection of Cultures: Multicultural Education in the United States”. New York: McGraw-Hill, 1995. - 197 p.
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – ЎзР ВМ ва Президентининг қарор ва фармойишлари.
7. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
8. [www.Ilm.uz](http://www.Ilm.uz)